

---

## MUNIS VA MO'‘TABAR XOTIN-QIZLARGA YUKSAK HURMAT-EHTIROM KO'RSATILDI

Ayol borki, olam munavvar, ayol borki, hayot go'zal va maftunkor. Inson, oila, ayol tushunchalarini bir-biridan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Go'zallik, nafosat, yangilanish, hayot davomiyligi bahor va ayol tushunchalarida uyg'unlashib ketadi.

Bugun Toshloq tumanida 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi. Tumandagi faol, turli sohalarda mehnat faoliyatini olib borayotgan xotin-qizlar ishtirok etgan tadbirda so'z olganlar yurtimizda xotin-qizlar manfaati yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida to'xtalib o'tdilar va dilbar ayollarni bayram bilan qutladilar. To'kin dasturxon atrofida tuman Madaniyat bo'limi xodimlari tomonidan yangragan dil izhorlari sho'x kuy-qo'shiqlarga ulandi. Baxtiyor chehralarda bu kabi e'tibor va mehrdan minnatdorlik, bugungi dorilomon kunlarga shukronalik, mamnunlik hissi tuyildi.

2024-03-07 17:52:09